bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. "Xalq so'zi", 2016 yil 8 dekabr.
3. Mirziyoyev Sh.M. 2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini «Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston" gazetasi bosh muharriri savollariga bergan javoblari.
4. Avezboev S., Volkov S.N. Yer tuzishni loyihalash / Darslik. - Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2003. - 476 b.
5. Avezboev S.A., Volkov S.N. Yer tuzishning ilmiy asoslari. - Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2005.
6. Avezboev S., Volkov S.N. Yer tuzish iqtisodi / Darslik. - Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2004. - 364 b.
7. Babajanov A.R., Raxmonov Q., G'ofirov A. Yer kadastri / Darslik. - Toshkent: TIMI, 2008. - 226 b.
8. Babajanov A.R. Ko'chmas mulk kadastri / O'quv qo'llanma. - Toshkent: TAQI, 2014. - 176 b.
9. Yormatova D., Babajanov A.R., Raximov A. Davlat kadastri asoslari / Darslik. - Toshkent: "Cho'lpon", 2014. - 242 b.
10. Minakov I., Kulikov N., Sokolov O. Ekonomika otrasley APK. - M.: Kolos, 2008. - 464 s.
11. Raxmonov Q.R. Yer monitoringi / O'quv qo'llanma. - Toshkent: TIMI, 2008. - 155 b.
12. Salimov B.T., O'roqov N. Qishloq xo'jaligi infratuzilmasi iqtisodiyoti. -T.: TDIU, 2004. - 112 b.
13. Safarov E.Y., Musaev I.M., Abduraxdmov H.A. Geoaxborot tizimi a texnologiyalari / O'quv qo'llanma. - Toshkent, 2008. - 148 b.
14. Chertoviskiy A.S., Bazarov A.K. Upravlenie zemlepolzovaniem / Uchebnoe posobie. - Tashkent: TIIM, 2009. - 378 s.
15. Chertoviskiy A.S., Bazarov A.K. Zemelniy kadastr / Uchebnoe posobie. - Tashkent: "Fan va texnologiyalar. - 295 s.
16. Choriyev Q., Berkinov B. Dehqon va fermer xo'jaliklarini tashkil etish va yuritishning huquqiy-me'yoriy asoslari. - T.: Sharq, 2002.
17. Husanov R., Qosimov M. Dehqon xo'jaligini yuritishning ilmiy va amaliy asoslari. - T.: Cho'lpon, 2000.
18. Hakimov R., Otaqulov M., Yusupov E., Yusupov M.S. Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti. - O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2004. - 160 b.
19. Altiyev A.S. Yerdan foydalanish iqtisodiyoti.- Darslik. - Toshkent, 2020 y-282 b.
20. Hakimov R. Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti / Darslik. – T.: Iqtisodiyot, 2007. -364 b.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**"TASDIQLAYMAN"**
**Buxoro davlat texnika universiteti rektori _________ S.G'.Siddiqova**
**"___" _______ 2025 yil**

**06.01.10 — "Yer tuzish, kadastr va yer monitoringi" ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga (PhD) kirish imtihoni**

# D A S T U R I

**Buxoro – 2025**

Ixtisoslik fanlaridan 06.01.10 — "Yer tuzish, kadastr va yer monitoringi" ixtisosligi bo`yicha tayanch doktoranturaga (PhD) kirish imtihoni dasturi Buxoro davlat texnika universiteti Kengashining 2025 yil 29.09 dagi 2 -sonli yig'ilish muhokama qilindi va tasdiqlandi.

**TUZUVCHILAR:**

| | |
|---|---|
| **S.R.Asatov** | Buxoro davlat texnika universiteti "Yer resurslaridan foydalanish va davlat kadastlari" kafedrasi mudiri, b.f.f.d. (PhD) |
| F.Sh.Xudoyberdiyev | Buxoro davlat texnika universiteti "Yer resurslaridan foydalanish va davlat kadastlari" kafedrasi professori, t.f.f.d. (PhD) |
| Sh.Ya. Sattorov | Buxoro davlat texnika universiteti "Yer resurslaridan foydalanish va davlat kadastlari" kafedrasi dotsenti, t.f.f.d. (PhD) |

**TAQRIZCHILAR:**

S.B. Ro`ziboyev - TIQXMMI MTU"Yer resurslarini boshqarish" kafedrasi dotsenti, t.f.f.d.(PhD)
Z.X.Salomov – "O`zdavyerloyiha" instituti Buxvilyerloyiha bo`linmasi direktori.

## KIRISH

Dastur O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risidagi" qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida" 2017 yil 16 fevraldagi PF-4958-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo`ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi, 2020 yil 29 oktyabrdagi PF-6097-son "Ilm fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi, 2018 yil 8 maydagi PQ-3702-son qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017 yil 22 maydagi №304-son qarorida belgilangan vazifalar hamda 06.01.10 - "Yer tuzish, kadastr va yer monitoringi" ixtisosligi pasporti asosida tuzilgan.

Mazkur dastur yuqoridagi ixtisoslik bo'yicha tayanch doktoranturaga kiradigan talabgorlarda yer tuzishni loyihalashning uslubiy masalalari, yer tuzishni loyihalash texnologiyasi va usullari, xo'jaliklararo yer tuzish tushunchasi, vazifalari va mazmuni, xo'jaliklararo yer tuzish jarayoni va uni o'tkazishning asoslari, qishloq xo'jaligi yer egaliklari va yerdan foydalanishlarini tashkil etish va tartibga solish, noqishloq xo'jalik maqsadlariga mo'ljallangan yerdan foydalanishlarni tashkil etish, yerlarni va atrofdagi tabiiy muhitni muhofaza qilish, aholi yashash joylarining chegaralarini belgilash va o'zgartirish, yerlarini tashkil etish va ulardan foydalanish, aholi yashash joylarining chegaralarini belgilash va o'zgartirish, yerlarini tashkil etish va ulardan foydalanish, ma'muriy hududiy bo'linmalarning chegaralarini belgilash, yerdan foydalanishdagi cheklashlar va majburiyatlar, yerga mulkchilik huquqi va yerdan foydalanish huquqi, yerdan foydalanish va muhofaza qilish ustidan davlat nazorati, davlat yer kadastrining nazariy asoslari, yer kadastri ma'lumotlarini olish, qayta ishlash va tahlil qilish usullari, yer kadastri ma'lumotlaridan foydalanish, davlat kadastrlarini yuritishning nazariy asoslarini, davlat kadastrlarining yagona tizimini tashkil etish va uni yuritishni, tabiiy resurslar kadastrini yuritish, yer monitoringini tarkibiy qismlari va bosqichlarini, davlat yer monitoringini o'tkazish asoslari va tuzilmasini, yer monitoringi natijalarini ko'rib chiqish va undan foydalanish, yer toifalarida yer monitoringini olib borish tartibi, yer monitoringi bo'yicha yagona axborotlar bankini yaratish masalalari to'g'risida nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni tizimli o'zlashtirishga xizmat qiladi.

### 1. Ixtisoslik fanlarining maqsad va vazifalari

**Maqsadi** - Mamlakatimizda yer resurslaridan foydalanish, yer munosabatlarini tartibga solish, yer tuzish va yer monitoringini tashkil qilish, agrar sohada samarali va maqsadli foydalanishni ta'minlaydigan yagona tizim yaratish, uni doimiy ravishda takomillashtirib borishning nazariy va amaliy asoslari, ilmiy-tadqiqot ishlari bo'yicha ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iboratdir.

**Vazifasi** - bo'lajak oliy malakali kadrlarga yerdan ilmiy asoslangan tarzda, oqilona foydalanish va uni muhofaza qilishni, tabiiy muhitni asrash va yaxshilashni, xo'jalik yuritishning barcha shakllarini teng huquqlilik asosida rivojlantirish uchun sharoit yaratishni, yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarini himoya qilishni ta'minlash maqsadida yer munosabatlarini tartibga solishdan, shuningdek bu sohada qonuniylikni mustahkamlash mexanizmlarini tadqiq etishni o'rgatishdan iboratdir.

### 2. Ixtisoslik fanlarining ishlab chiqarishdagi o'rni

Ixtisoslik fanlarining ishlab chiqarishdagi o'rni bozor iqtisodiyotiga asoslangan, jamiyatimizda olib borilayotgan barcha sohalarni erkinlashtirilishiga yo'naltirilgan ijtimoiy, iqtisodiy hamda siyosiy qayta qurish, yerga oid munosabatlarni tartibga solish, turli maqsadlar uchun yer ajratishning ilmiy uslubiy asoslarini yaratish, yerlarni muhofaza qilish, agroekotizimlarning barqarorligini ta'minlash, yuqori mahsuldorli va ekologik barqaror agrolandshaftlarni shakllantirish, yer monitoringining ilmiy asoslarini yaratish, yer axborot tizimini ishlab chiqish yo'llarini asoslangan holda belgilab olish, bino va inshootlar kadastrini yuritish tizimini yaratish ham ilmiy jihatdan, ham amaliy jihatdan asoslarini yaratishda, rivojlantirishda, ularni ishlab chiqarishga joriy etishda iqtisodiyot tarmoqlarining o'ziga xos

milliy xususiyatlarini oshirish masalalarini qamrab olganligi bilan belgilanadi.

**3. Dasturga kiritilgan ixtisoslik fanlari**

**3.1. YER TUZISH fani bo'yicha**

**1. Mamlakatimizda yoshlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularning ta'lim olishi, mehnat qilishi, bilim va qobiliyatini ro'yobga chiqarishi uchun zarur sharoitlar yaratilmoqda. Yangi O'zbekistonni bunyod etish jarayonida yoshlarning o'rni va asosiy vazifalari nimalardan iborat, deb o'ylaysiz?**

**2. Yer to'g'risidagi qonun hujjatlarining asosiy vazifalari va asosiy prinsiplari to'g'risida.** Yerlarning davlat tomonidan muhofaza qilinishining asoslantirilishi. Yer to'g'risidagi qonun hujjatlarining asosiy vazifalari nimalardan iboratligi. Yer to'g'risidagi qonun hujjatlari asosiy prinsiplarining asoslantirilishi.

**3. Yer munosabatlarini tartibga solish, shuningdek, bu sohada qonuniylikni mustahkamlashning asosiy yo'nalishlari .**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta'minlash, yerga bo'lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.

**4. Yer tuzishning vazifalari va mazmuni. Yer tuzishning turlarga** bo'linishi.Istiqbolga mo'ljallangan va loyihalash oldidan amalga oshiriladigan yer tuzish ishlari. Xo'jaliklararo yer tuzishning ahamiyati. Ichki xo'jalik yer tuzishni tashkil etish. Yer tuzish loyihalarini naturaga (joyning o'ziga) ko'chirish uslublari. Yer tuzish turi loyihalarining amalga oshirilishi ustidan yer tuzishning tarkibiy qismi bo'lgan mualliflik nazoratini olib borish talablari. Yer tuzish tartibida yerlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish bilan bog'liq boshqa loyihalarni ishlab chiqish afzalliklari.

**5. Xo'jaliklararo yer tuzishning mazmuni,asosiy vazifalari va yer islohotini amalga oshirishdagi ahamiyati.** Xo'jaliklararo yer tuzishning mazmuni, mohiyati, o'tkazish tamoyillari. Xo'jaliklararo yer tuzishning turlari, ko'rinishlari. Xo'jaliklararo yer tuzish loyihalari, loyihalash jarayoni va uning asosiy bosqichlari. Turli noqishloq xo'jalik maqsadlari uchun yer ajratish tartibi, ajratiladigan yer maydonlarining miqdorlarini asoslash usullari. Yerlarni rekultivatsiyalashning mazmuni, mohiyati va bosqichlari.

**6. Ichki xo'jalik yer tuzishning mazmuni, mohiyati va o'tkazish tartibi.** Ichki xo'jalik yer tuzishning umumiy mazmuni, sug'oriladigan mintaqalarda uni o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlari. Ichki xo'jalik yer tuzish loyihalari, ularning mohiyati. Ichki xo'jalik yer tuzish loyihalarining tarkibiy qismlari va ularning mazmuni. Loyihani asoslash masalalari.

**7. Yerlarni baholash ishlarining ilmiy-uslubiy ta'minoti.** Respublika yagona yer fondi va uning asosiy toifalari, ulardan foydalanish. Yerlarni baholash, uning turlari va xususiyatlari. Bozor munosabatlari sharoitida yerlarni baholash ishlarining ahamiyati. Yer toifalari bo'yicha yerlarni baholashning asosiy xususiyatlari va mohiyati. Qishloq xo'jalik yerlarini baholashning o'ziga xosligi. Noqishloq xo'jalik yerlarini baholashning mohiyati va o'ziga xos alohida xususiyatlari. Yer toifalari bo'yicha yerlarni baholashning ilmiy-uslubiy masalalari.

**8. Yerlarning hisobini yuritishda birlamchi hududiy birlikni tanlashni asoslash.**

Yer hisobi to'g'risida tushuncha. Yer hisobining turlari. Yer hisobini yuritishning mohiyati va tartibi. Yerlarni sifat hisobi, uning mazmuni va yuritish. Respublikamizning ma'muriy hududiy birliklari, ularni vujudga keltirish tamoyillari. Bozor iqtisodiyoti sharoitida yerlarni sifat hisobining ahamiyati. Yerlarni sifat hisobini o'tkazish maqsadlari uchun birlamchi hududiy birlikni tanlash va xar tomonlama asoslash.

**9. Yerlarni muhofaza qilish - ularni mintaqaviy va regional xususiyatlarini hisobga olgan holda yerlardan foydalanishga majmuali yondoshuv asosi (yerlarning degradatsiyalanishini bartaraf etish, yerlarni ekologik holati, yerlarni shamol va suv eroziyasidan himoyalash, qishloq xo'jalik yer turlarnnn ifloslanishdan himoyalash, buzilgan yerlarni rekultivatsiya qilish).**

Yerlarni muhofaza qilishning mazmuni va mohiyati. Yerlarni muhofaza qilish uchun zaruriy axborotlar va ma'lumotlarning turlari va tarkibi. Yerlarni degradatsiyalanishini (tanazzulga yuz tutishini) bartaraf etish yo'llari va tartibi. Yerlarni ekologik holati va uni yaxshilash yo'nalishlari. Yerlarning shamol va suv eroziyasi haqida tushincha. Yer eroziyasining salbiy oqibatlari hamda ularni bartaraf etish bo'yicha tadbirlar majmuasi. Qishloq xo'jalik yerlarini zaharli moddalar bilan ifloslanishi hamda buni bartaraf etish yo'llari. Yerlarning rekultivatsiyasi to'g'risida tushunchalar. Rekultivatsiya turlari va yo'nalishlari. Yerlarning rekultivatsiyasini o'tkazish tartibi va usullari. Yerlarni rekultivatsiyalash samaradorligi.

**10. Agroekotizimlar barqarorligi (dalalarni himoyalovchi o'rmon daraxtzorlari, ekologik jihatdan asoslangan yerlarni melioratsiyalash va hokazolar bilan bir qatorda qo'riqxonalar, suvni muhofazalash, rekreatsion va sanitariya-gigiena ko'rinishidagi tabiatni muhofazalash tizimini yaratish).**

Agroekotizimlar to'grisida tushunchalar. Agroekotizimlarning barqarorligi to'g'risida tushunchalar. Agroekotizimlarning barqarorligini ta'minlashning asosiy yo'nalishlari va xususiyatlari. Qo'riqxonalar egallagan maydonlarni saqlash. Suv manbalarini muhofazalash tadbirlari va ularni amalga oshirish. Rekratsion mintaqalar tizimini riyojlantirish. Sanitariya-gigiena ko'rinishiga ega bo'lgan hududlarni muhofaza qilish tizimini yaratish va rivojlantirish.

**11. Yerlarning holatini nazorat qiluvchi ko'rsatkichlar tizimini asoslash.**

Yerlarning holatini nazorat qiluvchi ko'rsatichlar to'g'risida umumiy tushunchalar. Yerlarning holatini nazorat qiluvchi tabiiy- ekologik ko'rsatkichlar. Yerlarning holatini nazorat qiluvchi ijtimoiy iqtisodiy ko'rsatkichlar. Ko'rsatichlar tizimini xar tomonlama asoslash. Yerlarning miqdoriy holatini nazorat qiluvchi ko'rsatkichlar. Yerlarning sifat holatini nazorat qiluvchi ko'rsatkichlar. Yerlarning qiymatini nazorat qiluvchi ko'rsatkichlar tizimi.

**12. Yer-axborot tizimi (YeAT)ni ishlab chiqish-zamonaviy axborotli va geoaxborotli texnologiyalar asosidagi geo-axborotli tizimlarning asosiy qismi sifatida.**

Yer-axborot tizimi to'g'risida tushuncha. Yer-axborot tizimini ishlab chiqish, tartibi, usullari va xususiyatlari. Yer-axborot tizimini ishlab chiqishni iqtisodiyot tarmoqlari uchun mohiyati va ahamiyati. Geoaxborotli texnologiyalar, ularning o'ziga xos xususiyatlari va bugungi kundagi ahamiyati, masalalari.

**13. Yer servitutining ilmiy asoslari, maqsadi, funksiyalari, mazmuni va tashkil etish**

Yer servituti, uni vujudga kelishi. Yer servitutining maqsadi, funksiyalari, mazmuni. Sug'oriladigan hududlarda yer servitutining vujudga kelishining o'ziga xos belgilari va xususiyatlari. Yer servitutini tashkil etish tamoyillari va tartibi.

**14. Yer resurslaridan foydalanishni prognozlashning metodologik asoslari va taxlil qilish metodlarini ishlab chiqish**

Yerdan foydalanishni prognozlash to'g'risida tushunchalar, uning mazmuni, mohiyati va tamoyillari. Prognozlar turlari va ularni ishlab chiqishning o'ziga xos xususiyatlari. Respublika yer resurslaridan foydalanishning bosh sxemasi. Viloyat va ma'muriy tumanning yer tuzish sxemalari, ularni ishlab chiqish tartibi. Yer tuzish sxemalarini ishlab chiqishda qo'llaniladigan usullar. Yer resurslaridan foydalanishni bashoratlash materiallarini qo'llash sohalari.

**15. Iqtisodiyot tarmoqlari va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar orasida yer taqsimoti.**

Iqtisodiyot tarmoqlari o'rtasida yerlarni taqsimlash va qayta taqsimlashning mazmuni, mohiyati va ahamiyati. Yer taqsimotini amalga oshirish usullari va uslublari. Yer taqsimotini doimiy ravishda amalga oshirishda innovatsion yondoshuvlar, ularning mazmuni. Yer taqsimotining tamoyillari va o'ziga xos xususiyatlari. Yerlarni taqsimlash va qayta taqsimlashdagi texnik vositalar, ularni takomillashtirish ma^salalari.

**16. Yer uchastkalarini tanlash va ajratishning metodologik asoslari. Yer ajratishda yetkazilgan zararlarni o'rnini qoplab berish uslubiyati.**

Iqtisodiyot tarmoqlari uchun yer ajratish bilan bog'liq xo'jaliklararo yer tuzishning mazmuni va mohiyati. Turli tarmoqlar uchun yer tanlashning mazmuni va uni o'tkazishning xususiyatlari. Noqishloq xo'jalik maqsadlari uchun yer ajratishda qishloq xo'jaligi ko'radigan

zararlarni aniqlash tartibi va uslubiyati. Yer ajratish bilan bog'lik yer tuzish loyihalarini ishlab chiqish tartibi. Yer ajratish loyihalarini ijtimoiy ekologik asoslash masalalari.

**17. Yer ajratish va davlat yer kadastrini yuritishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish. Yer uchastkalarini tanlash va ajratishning metodologik asoslari.**

Yer ajratish to'g'risida tushuncha. Turli maqsadlar uchun yer ajratishning ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik mohiyati. Ajratish maqsadlarida yer uchastkalarini tanlash va asoslash.' Yer ajratishning loyihaviy variantlari hamda ularni tanlash mezonlari. Yer uchastkalarini tanlash va ajratishining ilmiy va metodologik asoslari. Davlat yer kadastri, uning mazmuni va mohiyati. Yer kadastrini yuritish tartibi va uslubiyatlari. Davlat yer kadastrini yuritish muammolari va ularni hal qilish yo'llari.

## 3.2.YER KADASTRI

**18. Yer uchastkalari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, xujjatlashtirish, qayta ishlash va saqlash tamoyillari. Yer kadastrini yuritish uslubiyati.**

Yer uchastkalari to'g'risidagi ma'lumotlar, yer uchastkalariga bo'lgan huquq turlari, ularning mohiyati. Yer uchastkalari tug'risidagi ma'lumotlarni tuplash, rasmiylashtirish, qayta ishlash va saqlashning mazmuni va mohiyati. Ma'lumotlarni tuplash, rasmiylashtirish, qayta ishlash va saqlash tamoyillari. Yerlardan foydalanishni tashkil etishda ular tug'risidagi ma'lumotlarning ahamiyati. Yer kadastrini yuritish tartibi. Yer kadastrini yuritishning yagona uslubiyatini ishlab chiqish buyicha ilmiy tadkiqotlar. Yagona uslubiyat asosida yaratilgan yer kadastri ma'lumotlarining ahamiyati.

**19. Davlat yer kadastrini axborotli ta'minoti.**

Davlat yer kadastri - yer to'g'risidagi huquqiy, miqdoriy, sifat va qiymat ma'lumotlarining mujassamlashgan to'plami sifatida. Yer kadastrining tarkibiy qismlari va turlari. Davlat yer kadastrini yuritish tamoyillari. O'zbekistonning turli hududlarida yer kadastrini yuritishning xususiyatlari. Yer kadastrini yuritish maqadlarida uni axborotli ta'minotini yo'lga qo'yish. Davlat yer kadastri tizimi va uni axborotli ta'minoti.

**20. Binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritish va uning axborotli ta'minoti bo'yicha yagona uslubiyatni ishlab chiqish**

Binolar va inshootlar davlat kadastri, uning mazmuni, mohiyati va yuritish tamoyillari. Binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritish uchun uni axborotli ta'minoti. Bugungi bozor sharoytida binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritishning xususiyatlari. Axborotli ta'minotni amalga oshirish uchun yagona, ilmiy asoslangan uslubiyatni ishlab chiqish yo'nalishlari.

## 3.3. YER MONITORINGI

**21. Yer monitoringi-ilmiy yo'nalish sifatida(konsepsiyasi, metodologiyasi, texnologiyasi), uni yuritishga tizimli yondoshuv.**

Yer monitoringi tushunchasi. Yer monitoringini o'tkazish tartibi. Yer monitoringini turlari va ko'rinishlari. Hududiy bo'linishi bo'yicha yer monitoringini turlari. Yer monitoringini o'tkazish uslubiyatlari va uslublari. Yer monitoringini rivojlantirish konsepsiyasi. Yer monitoringining metodologiyasi. Yer monitoringini o'tkazish texnologiyasi. Yer monitoringini o'tkazish va uning axborotlaridan foydalanishga tizimli yondashuv.

**22. Yer monitoringining ilmiy asoslari, maqsadi, funksiyalari, mazmuni xamda tashkil etish (respublika, regional va lokal darajalari). ■.**

Yer monitoringining maqsadi. Yer monitoringining funksiyalari. Yer monitoringini tashkil etish. Respublika bo'yicha yagona tarzdagi yer monitoringini tashkil etish. Regional darajadagi yer monitoringini tashkil etish. Lokal darajadagi yer monitoringini tashkil etish. Yer monitoringini tashkil etishning ilmiy uslubiy asoslari.

**23. Yer monitoringini amalga oshiruvchi organlarning vazifa va funksiyalari.**

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning yerlar monitoringini yuritish bo'yicha faoliyati va belgilangan vazifalar. Yerlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish bo'yicha davlat nazoratini amalga oshiruvchi organlar, ularning asosiy vazifalari, funksiyasi va davlat nazoratini amalga oshirish sohasidagi vakolatlari

**24. Yer monitoringini amalga oshirish jarayonida aniqlanishi lozim bo'lgan holatlar.**

Doimiy va muddatli (vaqtincha) foydalanish, o'rmonlar va manzara- ekologiya majmualar, daryolar, soylar va ko'llar qirg'oqlar, aholi punktlari, foydali qazilma konlar, irrigatsiya va melioratsiya tarmoqlarining hamda gidrotexnika inshootlari.

## KIRISH IMTIHONI SAVOLLAR TO`PLAMI

1. Yer monitoringi-ilmiy yo'nalish sifatida. (konsepsiyasi, metodologiyasi, texnologiyasi), uni yuritishga tizimli yondashuv.[11; 3-17]
2. Yerlarni muhofaza qilish - ularni mintaqaviy va regional xususiyatlarini hisobga olgan holda yerlardan foydalanishga majmuali yondoshuv asosi (yerlarning degradatsiyalanishini bartaraf etish, yerlarni ekologik holati, yerlarni shamol va suv eroziyasidan himoyalash, qishloq xo'jalik yer turlarini ifloslanishdan himoyalash, buzilgan yerlarni rekultivatsiya qilish). [4; 204-208, 222-230, 674-702, 752-778]
3 .Yer ajratish va davlat yer kadastrini yuritishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish.Yer uchastkalarini tanlash va ajratishning metodologik asoslari.[15:45-66]
4.Yer to'g'risidagi qonun hujjatlarining asosiy vazifalari va asosiy prinsiplari to'g'risida .
5.Agroekotizimlar barqarorligi (dalalarni himoyalovchi o'rmon daraxtzorlari, ekologik jihatdan asoslangan yerlarni melioratsiyalash va hokazolar bilan bir qatorda qo'riqxonalar, suvni muhofazalash, rekreatsion va sanitariya-gigiena ko'rinishidagi tabiatni muhofazalash tizimini yaratish).
6. Yer uchastkalari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, hujjatlashtirish, qayta ishlash va saqdash tamoyillari. Yer kadastrini yuritish uslubiyati.[7;34-42]
7. Yer munosabatlarini tartibga solish, shuningdek, bu sohada qonuniylikni mustahkamlashning asosiy yo'nalishlari. [ 5;26-28]
8. Yerlarning holatini nazorat qiluvchi ko'rsatkichlar tizimini asoslash. [5;129-140]
9. Davlat yer kadastrining axborotli ta'minoti. [7; 45-49]
10. Yer tuzishning vazifalari va mazmuni. Yer tuzishning turlarga bo'linishi. [5;110-122]
11 .Yer-axborot tizimi (YeAT)ni ishlab chiqish-zamonaviy axborotli va geoaxborotli texnologiyalar asosidagi geo-axborotli tizimlarning asosiy qismi sifatida. [13; 20-27]
12. Binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritish va uning axborotli ta'minoti bo'yicha yagona uslubiyatni ishlab chiqish. [9; 128-135]
13. Xo'jaliklararo yer tuzishning mazmuni, asosiy vazifalari va yer islohotini amalga oshirishdagi ahamiyati. [4; 104-122]
14. Yer servitutining ilmiy asoslari, maqsadi, funksiyalari, mazmuni va tashkil etish. [ 4;258-266]
15. Xo'jaliklararo yer tuzish loyihalari, loyihalash jarayoni va uning asosiy bosqichlari. [123-138]
16. Yerlarni baholash ishlarining ilmiy-uslubiy ta'minoti. [ 9;59-72 ]
17. Iqtisodiyot tarmoqlari va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar orasida yer taqsimoti. [3; 21-59]
18. Yer monitoringini amalga oshiruvchi organlarning vazifa va funksiyalari. [ 11; 7-18]
19. Ichki xo'jalik yer tuzishning mazmuni, mohiyati va o'tkazish tartibi. [ 4; 295-319 ]
20. Yer resurslaridan foydalanish. Yer hisobi to'g'risida tushuncha. Yer hisobining turlari. [15;131-154]
21. Yer monitoringining ilmiy asoslari, maqsadi, funksiyalari, mazmuni hamda tashkil etish (respublika, regional va lokal darajalari). [11;18-40]
22. Yerlarni baholash ishlarining ilmiy-uslubiy ta'minoti. [15;204-215]
23. Iqtisodiyot tarmoqlari va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar orasida yer taqsimoti. [4;139-182]

24. Yer monitoringini amalga oshiruvchi organlarning vazifa va funksiyalari. [11; 18-39]

25. Yerlarning hisobini yuritishda birlamchi hududiy birlikni tanlashni asoslash. [15; 148-163]

26. Yer uchastkalarini tanlash va ajratishning metodologik asoslari. Yer ajratishda yetkazilgan zararlarni o'rnini qoplab berish uslubiyati. [15;45-50]

27. Yer monitoringini amalga oshirish jarayonida aniqlanishi lozim bo'lgan holatlar. [11;36-39]

28. Respublika yagona yer fondi va uning asosiy toifalari, ulardan foydalanish. [ 4;109-118]

29. Yer monitoringi-ilmiy yo'nalish sifatida (konsepsiyasi, metodologiyasi, texnologiyasi), uni yuritishga tizimli yondashuv. [11;18-47]

30. Davlat yer kadastrini axborotli ta'minoti. [15;51-61]

31 .Yer to'g'risidagi qonun hujjatlarining asosiy vazifalari va asosiy prinsiplari to'g'risida. [ 5;85-88, 15;38-44 ]

32. Yerlarning hisobini yuritishda birlamchi hududiy birlikni tanlashni asoslash. [ 7;79-81 ]

33. Yer monitoringining ilmiy asoslari, maqsadi, funksiyalari, mazmuni hamda tashkil etish (respublika, regional va lokal darajalari). [ 11;18-47 ]

34. Yerlarning holatini nazorat qiluvchi ko'rsatkichlar tizimini asoslash. [ 15;131-136 ]

35. Yer uchastkalari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, xujjatlashtirish, qayta ishlash va saklash tamoyillari. Yer kadastrini yuritish uslubiyati. [15; 34-38]

36. Yer monitoringini amalga oshiruvchi organlarning vazifa va funksiyalari. [11;40-46]

37. Xo'jaliklararo yer tuzishning mazmuni, asosiy vazifalari va yer islohotini amalga oshirishdagi ahamiyati. [4;118-122]

38. Yer servitutining ilmiy asoslari, maqsadi, funksiyalari, mazmuni va tashkil etish. [15;87-95,4;258-266]

39. Yer monitoringini amalga oshirish jarayonida aniqlanishi lozim bo'lgan holatlar. [11;36-39]

40. Yerlarni baholash, uning turlari va xususiyatlari. Bozor munosabatlari sharoitida yerlarni baholash ishlarining ahamiyati. [7; 79-82]

41. Ilmiy tadqiqot uchun tanlangan mavzuning dolzarbligi.

42. Yer tuzishni loyihalashning paydo bo'lishi va rivojlanishi to'grisida ma'lumotlar. [4;8-13]

43. Yer tuzishni loyihalash va uni yer tuzish tizimidagi o'rni, uni boshqa fanlar bilan bog'liqligi. [4;13-27]

44. O'zbekiston Respublikasining "Yer kodeksi" va boshqa normativ xujjatlarda yer tuzishni loyihalashni yoritilishi. [4; 26-28]

45. Yer tuzishni loyihalash tizimi va uning asosiy mazmuni, loyihalash bosqichlari. [ 4;30-38]

46. Davlat yer kadastri uchun ma'lumotlar to'plash va ularni qayta ishlash usullari, ularning mazmuni va mohiyati. [7;19-23]

47. Davlat yer kadastrini yuritishning asosiy tamoyillari va ularning o'zaro bog'liqligi, xususiyatlari.[ 7;103-119 ]

48. Sug'oriladigan yerlarni miqdoriy va sifat hisobini yuritish, ularning mazmuni, yuritish usullari va asosiy natijalaridan foydalanish masalalari. [7;67-78]

49. Yerlarni kadastrli baholash ishlarini o'tkazishning asosiy uslubiyatlari, ularning mazmuni, mohiyati va yer baholash ishlari natijalaridan foydalanish. [ 7;6-14 ]

50. Ma'muriy tumanda yer hisobini yuritish, yer hisobi natijalarini qo'llash yo'nalishlari va o'ziga hos belgilari. [7;122-164 ]

51. Yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatiga olish tizimini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari. [7; 50-67]

52. Viloyatda yer kadastrini yuritishning o'ziga xos xusisiyatlari va xududlarni majmuali rivojlantirishda bu ma'lumotlarning o'rni. [7;173-174, 177-179 ]

53. Respublikada davlat yer kadastrini yuritishning asosiy belgilari va yo'nalishlari. [ 7;180-184]

54. Davlat kadastrlarining yagona tizimida yer kadastrining tutgan o'rni va ahamiyati, ularning bog'liqligi. [7;14-19]

55. Yer monitoringini o'tkazishda zamonaviy texnologiyalar, ularning asosiy belgilari va xususiyatlari. [11;41-48]

56. Geoaxborot tizimi texnologiyalari, ular asosida olinadigan ma'lumotlar yordamida yer monitoringini o'tkazish afzalliklari. [13;14-24]

57. Yer monitoringini asosiy vazifalari, tamoyillari, xujjatlari.Yer monitoringi natijalarini qo'llash usullari. [11;7-16]

58. Qishloq xo'jalik yerlarini baholashning o'ziga xosligi. Nokishloq xo'jalik yerlarini baholashning mohiyati va uziga xos alohida xususiyatlari. [6;118-128]

59. Istiqbolga mo'ljallangan va loyihalash oldidan amalga oshiriladigan yer tuzish ishlari. [5;110-113]

60. Yer hisobi to'g'risida tushuncha. Yer hisobining turlari. [7; 67-78]

61. Yerlarning rekultivatsiyasi to'g'risida tushunchalar. [4;204-208]

62. Yerlarning shamol va suv eroziyasi haqida tushincha. [4;677-695]

63. Binolar va inshootlar davlat kadastri, uning mazmuni, mohiyati va yuritish tamoyillari. [9;19-22]

64. Yer to'g'risidagi qonun hujjatlarining asosiy vazifalari nimalardan iboratligi. [5;33-46]

65. Yerlarning miqdoriy holatini nazorat qiluvchi ko'rsatkichlar. [7; 67-78]

66. Lokal darajadagi yer monitoringini tashkil etish. Yer monitoringini tashkil etishning ilmiy uslubiy asoslari. [ 11;18-40]

67. Yer taqsimotining tamoyillari va o'ziga xos xususiyatlari. [ 5;7-12 ]

68. Davlat yer kadastrini yuritish tamoyillari. [15;27-33]

69. Prognozlar turlari va ularni ishlab chiqishning o'ziga xos xususiyatlari. [5;161-175]

70. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta'minlash, yerga bo'lgan xuqukdarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni.

71 .Ichki xo'jalik yer tuzishni tashkil etish. [ 5$118-121]

72. Yer-axborot tizimini ishlab chiqish, tartibi, usullari va xususiyatlari. [13;3-14]

73. Regional darajadagi yer monitoringini tashkil etish. [ 11;49-51]

74. Davlat yer kadastrini yuritish tamoyillari. Uzbekistonning turli hududlarida yer kadastrini yuritishning xususiyatlari. [7;187-189]

75. Turli maqsadlar uchun yer ajratishning ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik mohiyati. [ 4;632-639 ]

76. Bugungi bozor sharoitida binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritishning xususiyatlari. [ 15;242-258]

77. Yerlarning sifat holatini nazorat qiluvchi ko'rsatkichlar. [ 15;223-226]

78. Yerlarni ekologik holati va uni yaxshilash yo'nalishlari. [4;632-633]

79. Yerlarni rekultivatsiyalashning mazmuni, mohiyati va bosqichlari. [4;204-208]

80. Sug'oriladigan hududlarda yer servitutining vujudga kelishining o'ziga xos belgilari va xususiyatlari.Yer servitutini tashkil etish tamoyillari va tartibi. [4;258-266 ]

81.2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini «Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida. [3 ]

82. Binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritish uchun uni axborotli ta'minoti. [9;19-22]

83. Agroekotizimlar to'g'risida tushunchalar. [4;182-187]

84. Yerlarni rekultivatsiyalashning mazmuni, mohiyati va bosqichlari. [4;204-208]

85. Yer ajratishning loyihaviy variantlari hamda ularni tanlash mezonlari. [ 5;110-122 ]

86. Yerlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish bo'yicha davlat nazoratini amalga oshiruvchi organlar, ularning asosiy vazifalari, funksiyasi va davlat nazoratini amalga oshirish sohasidagi vakolatlari[5;3-24]

87. Doimiy va muddatli (vaqtincha) foydalanish, o'rmonlar va manzara- ekologiya majmualar, daryolar, soylar va ko'llar qirg'oqlar, aholi punktlari,foydali qazilma konlar, irrigatsiya va melioratsiya tarmoqlarining hamda gidrotexnika inshootlari. [4;188-231]

88. Yer monitoringini o'tkazish uslubiyatlari va uslublari[11;7-17]

89. Yer eroziyasining salbiy oqibatlari hamda ularni bartaraf etish bo'yicha tadbirlar majmuasi. Qishloq xo'jalik yerlarini zaharli moddalar bilan ifloslanishi hamda buni bartaraf etish yo'llari. [4;674-685,752-760 ]

90. Suv manbalarini muhofazalash tadbirlari va ularni amalga oshirish. [4;182-187]

91. Axborotli ta'minotni amalga oshirish uchun yagona, ilmiy asoslangan uslubiyatni ishlab chiqish yo'nalishlari. [15;272-281]

92. Hududiy bo'linishi bo'yicha yer monitoringini turlari. [11;70-72]

93. Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning yerlarmonitoringini yuritish bo'yicha faoliyati va belgilangan vazifalar. [11;18-40]

94. Yer kadastrini yuritishning yagona uslubiyatini ishlab chiqish buyicha ilmiy tadqiqotlar. [ 15;34-38 ]

95. Yer eroziyasining salbiy oqibatlari hamda ularni bartaraf etish bo'yicha tadbirlar majmuasi. Qishloq xo'jalik yerlarini zaharli moddalar bilan ifloslanishi hamda buni bartaraf etish yo'llari. [4;743-752 ]

96. Sanitariya-gigiena ko'rinishiga ega bo'lgan hududlarni muhofaza qilish tizimini yaratish va rivojlantirish. [ 4; 222-230 ]

97. Yerlardan foydalanishni tashkil etishda ular tug'risidagi ma'lumotlarning ahamiyati. [ 5;7-12 ]

98. Ichki xo'jalik yer tuzish loyihalarining tarkibiy qismlari va ularning mazmuni. [ 5;118-122 ]

99. Axborotli ta'minotni amalga oshirish uchun yagona, ilmiy asoslangan uslubiyatni ishlab chiqish yo'nalishlari. [15;272-281]

100.Yer kadastrini yuritish maqadlarida uni axborotli ta'minotini yo'lga qo'yish. Davlat yer kadastri tizimi va uni axborotli ta'minoti. [ 7;34-45 ]

**06.01.10 — "Yer tuzish, kadastr va yer monitoringi" ixtisosligiga qabul bo'yicha mutaxasislik fanidan o'tkaziladigan yozma ishlarni baholash tartibi va mezonlari**

Har bir ixtisoslik bo'yicha talabgorlarning o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda butun sonlar bilan baholanadi. Yozma ish uchun kamida 4 ta savol berilib, ballar har bir savol uchun taqsimlanadi. Talabgorlarning ixtisoslik bo'yicha mutaxasislik fanidan yozgan yozma ishlarini ballar asosida baholashda quyidagi mezonlar tavsiya etiladi (har bir savolga maksimal balldan):

| Ball | Yozma ishni baholash me'zoni |
|---|---|
| 86–100 | savol moxiyatini to'liq ochib berilganligi; |
| | fikr to'liq va tushunarli bayon qilinganiligi; |
| | ijodiy fikrlay olinganligi; |
| | mutaxassislik bo'yicha zamonaviy axborot manbalaridan foydalanganligi; |
| | o'rinli misollar keltirilganligi; |
| | chizma va formulalardan to'g'ri foydalanganligi; |
| | javobni ravon, grammatik va orfografik qoidalarga rioya qilingan holda yozilishi; |
| | mustaqil qaror qabul qilinganligi; |
| | to'g'ri xulosa qilinganligi. |
| 71–85 | ko'rilayotgan masala (voqea, hodisa, jaaryon va h.k.) mohiyati va mazmunini qisman to'liq bayon qilinganligi; |
| | bilimlarini amaldda asosan to'g'ri qo'llay olganligi; |
| | savol mohiyatining qisman yoritilganligi, tasavvurga ega bo'linganligi; |
| | mutaxassislik bo'yicha zamonaviy axborot manbalaridan qisman foydalanganligi; |
| | javobni ravon, grammatik va orfografik qoidalarga rioya qilingan holda yozilishi; |
| | asosan to'g'ri xulosa qilinganligi, lekin ma'lumotlarning to'liq emasligi; |
| | fikrni to'liq yorita olmaganligi; |
| | javobning qisqaligi. |
| 56–70 | Ko'rilayotgan masala (voqea, hodisa, jarayon va h.k.) mohiyati va mazmunini qisman bayon qilinganligi; |
| | bilimlarini amalda qo'llash misollarini ka ko'rsatganligi; |
| | savol bo'yicha tasavvurga ega bo'lganligi; mutaxasislik bo'yicha zamonaviy axborot manbalaridan qisman foydalanganligi; |
| | javobda grammatik va orfografik xatolarga yo'l qo'yganligi; |
| | ma'lumotlarning to'liq emasligi; |
| | fikrni to'liq yorita olmaganligi. |
| 0–55 | savol mazmuniga mos bo'lmagan boshqa mavzu bo'yicha javob yozilganligi; |
| | javob yozilishiida grammatik va orfografik xatoralni ko'pligi va o'qib bo'lmas darajada tushunarsiz yozilganligi; |
| | xech qanday ma'lumotlarni kiritilmaganligi; |
| | fikrni qisman bayon qilganligi; |
| | savol mohiyatini tushunmaslik. |

**Foydalaniladigan adabiyotlar**


1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 29 dekabr 2020 yil.

2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. O'zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga